

TILSIMTOG‘ (Polyak xalq ertagi)

Bir qashshoq xotin bo‘lgan ekan. Uning uch o‘g‘li bor ekan. Ayol o‘g‘illarini jonidan yaxshi ko‘rar, o‘g‘illari ham onalarining mehriga mehr bilan javob qaytarib, har doim izzat-hurmatini joyiga qo‘yishar ekan.

O‘g‘illarining hammasi qo‘li gul, hunarmand yigitlar bo‘lgan ekan. Masalan, to‘ng‘ichi kostelda organ chalar ekan. Buning ustiga u kitobga juda ham o‘ch ekan. Kitobni ko‘p o‘qiganidan keyin olim bo‘ladi-da! Shu bois hamqishloqlari uni hurmat qilar, nainki hamqishloqlari, hatto Ksendzning o‘zi ham unga ehtirom bajo keltirar ekan.

O‘rtancha o‘g‘il askarda xizmat qilar ekan. Askar bo‘lganidan keyin botir bo‘ladi-da! Botirni kim hurmat qilmaydi, deysiz! Eh-he, u bormagan joy, u ko‘rmagan narsaning o‘zi qolmagan ekan! U ko‘rgan-kechirganlarini bir hikoya qilishga tushsa bormi, tinglovchilarning og‘zi lang ochilib, nafas olish ham eslaridan chiqib ketar ekan.

Kenja o‘g‘il esa xuddi bobo-yu bobokalonlariday daladan beri kelmay, yer haydab, ekin ekishdan bo‘shamas ekan. Dehqonchilik orqasidan ro‘zg‘or tebratib, keksa onasi-yu akalarini boqar ekan. Shu bois askar akasining ajoyib-u g‘aroyib hikoyalarini tinglashga, to‘ng‘ich akasining olimliklaridan hayratda qolishga sira vaqti bo‘lmas ekan. Shu odati uchun ikkala aka uni kalaka qilib, avom, o‘qimagan, deb ta’na qilar ekan.

Shu tariqa kunlar o‘taveribdi, uch aka-uka onalarining panohida g‘am-qayg‘u nimaligini bilmay yuraveribdi.

Nima bo‘libdi-yu, ularning boshiga nogoh musibat tushibdi. Mushtipar onalari bir kuni kechasi og‘ir betob bo‘lib qolibdi. Boyoqish kampir yotgan joyida o‘t-otash bo‘lib yonar, oh-voh qilar, dam-badam o‘g‘illarini chaqirar ekan.

Uchala o‘g‘il chopa-chopa onalari qoshiga yetib kelibdi, onaizor esa rangi devorday oqarib, zo‘rg‘a nafas olar ekan.

O‘g‘illari qayg‘uga botib, nima qilishlarini bilolmay, gangib qolishibdi.

Juda ko‘p kitob o‘qiganidan donolashib ketgan to‘ng‘ich o‘g‘il shunday debdi:

-Men onamga qarab turaman, sizlar yugurib borib folbin xotinni chaqirib kelinglar. U o‘rmonda, qabriston yonidagi tashlandiq uychada turadi.

Zora onamizning dardini o‘sha folbin xotin bilsa.

Ikkala uka oyoqlarini qo‘liga olganicha tog‘ osha, o‘rmon osha folbinga yugurib ketibdi. Folbin xotinning uyiga yetib kelishibdi-da, maqsadlarini aytishibdi, uni o‘zlari bilan olib izlariga qaytishibdi. Uylariga yetib kelishsa, to‘ng‘ich o‘g‘il darvoza oldida sabrsizlik bilan yo‘lga ko‘z tikib o‘tirgan emish.

-Onajonimizning ahvollari qanday?-deb baravariga so‘rashibdi ikkala uka.

-Sal yengil tortganday, chamamda, harqalay ingrashlari qoldi. Bir oz bo‘ldi ko‘zlari ilinganiga.

Folbin xotin ichkariga kirib, bemorning qoshiga kelibdi. U yoq-bu yog‘ini paypaslab ko‘ribdi-da, boshini chayqab:

- Rostdanam yengil tortibdi, boyoqish. Endi hech qayeri og‘rimayapti. Og‘rib-og‘rib, onalaring jon beribdi-ku, bo‘taloqlarim.

Folbin xotinning gaplarini eshitib, uchala aka-uka o‘krab yig‘lab yuboribdi. Baravariga «voy enam, voy enam» deb yoqalarini yirtib, boshlarini devorga ura boshlashibdi. Folbin xotin shuncha yoshga kirib, biror marta o‘lganga bunday qayg‘u chekkanni ko‘rmagan ekan. O‘g‘illarga rahmi kelib, shunday debdi;

-Bas qilinglar yig‘ini, qo‘zichoqlarim. Gapimga quloq soling: onaizorimiz qayta tirilsin desalaring, bir tomchi obihayot topib kelishlaring kerak bo‘ladi. Lekin bu har kimning ham qo‘lidan kelavermaydi. Uch katta daryo, uch baland tog‘ ortidan osmon barobar tilsimtog‘ keladi. O‘sha tog‘ning cho‘qqisida bir gapiruvchi daraxt bor, daraxt tagida buloq bor.

Buloqni tilsimlangan lochin qo'riqlab turadi. Toqqa borib-kelish naq yetti kunlik yo'l. Ne-ne botirlar o'sha yoqqa yo'l olib, birontasi omon qaytmagan. Tog'ning cho'qqisiga chiqish uchun faqat to'g'riga qarab yuriladi, hech qayoqqa burilmaydi, yon-atrofga qaralmaydi. Nima ko'rsang ham, nima eshitsang ham, o'zingni bilmaganga solasan, faqat to'g'riga, faqat to'g'ri yuraverasan! Bir karra o'ngga yo so'lga qadam qo'ydingmi, yoki orqaga burilib qaradingmi, tamom: toshday yerga kirib ketasan. Jamiki dahshat-u vahima degani o'sha yerda! Olam bino bo'lgandan beri hech bir zot cho'qqiga chiqolgan emas. Xo'sh, qaysi biringiz obihayot olib kelib, baxtingizni sinab ko'rmoqchisiz? Tog' cho'qqisiga quyosh bilan baravar yo'lga chiqiladi.

Folbin xotin shu gaplarni aytibdi-yu, ko'zdan g'oyib bo'libdi. Aka-ukalar bo'lsa, kim tilsimtoqqa borib, obihayot olib kelishi ustida o'zaro maslahat qila boshlashibdi.

-Menga qaranglar, — debdi o'rtancha o'g'il,— folbin xotin nima degani esingizdami: o'sha toqqa chiqish uchun botirlik kerak degandi, men chiniqqan askarman, botirlikda oldinga tushadigani yo'q. Jang maydonida necha martalab o'lim bilan yuzma-yuz bo'lganman. Menga devi kelsa ham, dovi kelsa ham pisand emas. Rosa bir hafta deganda meni obihayot bilan shu yerda kuting.

Askar yigit akasi va ukasi bilan xayrlashib, o'tkir qilichni qo'lga olib, hayt deya quyosh ortidan yo'lga tushibdi.

Bir kun o'tibdi, ikki kun o'tibdi, uch, to'rt... hash-pash deguncha yetti kun ham o'tibdi. Lekin askardan dom-darak yo'qmish. To'ng'ich bilan kenja o'g'il tashvishlanib, o'rmonga, folbin xotinga borib, o'rtanchalaridan nega dom-darak yo'qligini so'rashibdi.

-Kutib ovora bo'lmanglar, — deb javob beribdi folbin xotin. — U endi yurtiga qaytib kelmaydi. Tog'da bir yumaloq toshga aylanib qolgan, abadul-abad o'sha yerda qolib ketadi. kelmaydi.

Kenja o'g'il qattiq qayg'uga botibdi. Endi nima qilsin? Ko'z yosh to'kkan bilan foydasi yo'q. Yugurib uyga kelibdi-da, yo'lxaltaga non solibdi, chalg'isini charxlab, yelkasiga qo'yganicha quyosh ortidan yo'lga tushibdi.

U yo'l yuribdi, yo'l yursa ham mo'l yuribdi. Uch o'rmonni kezib chiqib, uch daryoni kechib o'tibdi, uchinchi kun deganda, kunbotar tomonda nihoyat tilsimtoqqa ko'zi tushibdi.

Tog' bo'lganda ham qanaqasi ekan deng — nayzaday cho'qqilari bulutlarga qadalgan, yon bag'irlarini qop-qora dov-daraxtlar qoplagan. Bir yonda eman bilan qarag'ay, bir yonda qayin bilan archalar, xuddi olishayotgan pahlavonlarday bir-biriga kalla qo'yib, shovillagani-shovillaganmish. Daraxtlarning oraliqlaridagi parcha-parcha ochiq yerlarda tikonli itburunlar, ternovniklar o'sib, shilimshiq tus qoplagan xarsanglar dumalab yotarmish. Chakalakzor ichida ilon-u kaltakesaklar, baqa-yu qurbaqalar g'ij-bij emish. Ilonlar kulcha bo'lib yotganicha vish-vish qilar, zaharlari tomib turarkan.

Uzoqdan qarab turib har qanday odam dahshatga tushib ketadi-yu, bolapaqir u yoqlarga qanday qadam bosolardi?

Shunda u marhuma onaizorini ko'z oldiga keltiribdi, yuragidagi qo'rquvni bosibdi va nima bo'lsa bo'ldi deb toqqa tomon yurib ketibdi. Qo'llari timdalanib, shiliniydi, oyoqlari qavarib, momataloq bo'lib ketibdi. Ilonlar oyog'iga chirmashib, ust-ustiga nish urar, tikonlar engil-boshini timdalar, titkilar, o'siq-o'siq qiyoq o'tlar yuz-ko'zlarini piskaday tilib, qontalash qilar, zaharli suvlari yuz va badanlarini olovday kuydirar ekan. Lekin yigitcha bularning hech biriga parvo qilmay olg'a yurib ketaveribdi.

Shunday ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt kimdir:

-Hoy, to'xta? Yo'l bo'lsin? — deb chaqiribdi.

Bola endi burilib qarayman deb turganida folbinning gaplari esiga tushib, yo'lida davom etibdi.

Birdan osmondan tushdimi, yerdan chiqdimi, chap biqinida kalta kaftan kiygan bir yo'lovchi paydo bo'libdi. Bo'yi pastakkina, basharasi xunukkina.

-Salom birodar! — debdi u sipolik bilan boshidan shlyapasini olib. — Xudo xohlasa, yo'l bo'lgay?

-Toqqa! — javob beribdi marhuma bevaning o'g'li.

-Toqqa chiqib nima qilasan?

Yigitcha:

-Obihayot olib tushaman, — deb javob qaytaribdi.

-Unday bo'lsa yo'limiz bir ekan. Men ham obihayot olib kelgani ketyapman. Bir-birimizga hamroh ekanmiz.

-Bo'lsak bo'libmiz-da. Ketdik.

-Menga qara, birodar, u yoqdan yurma. Nima qilasan chakalakzorda timdalanib, qoya-toshlarga tarmashib? Huv anavi yoqqa qara, chap yoningda shundoq keng, tep-tekis yo'l turganda...

Yigitcha o'sha tomonga qarasa, rostdanam taxtaday tekis yo'l quyoshda yaltirab turganmish.

-Yursang-chi, nega turibsan? — deb uni unday boshlabdi pakana odam.

-O'zing boraver, men to'g'ridan ketaveraman, — debdi marhuma bevaning o'g'li jodugar kampirning gaplarini eslab.

-Ey, yursang-chi! — yengidan tortibdi pakana.

-Yurmayman! — qat'iy javob beribdi yigitcha.

-He o'z foydasini bilmagan nodon! — tishlarini g'ichirlatibdi kalta kaftanli yo'lovchi jahli chiqib. Shunday debdi-yu, bir tomonga lip etib sakrab, yo'q bo'libdi-qolibdi.

Bolapaqir asta-sekinlik bilan toqqa chiqib ketaveribdi. Birdan o'rmonni kuchli shovqin-suron tutibdi. Orqa tomondan kuchuklarning akillashi, uvullashi, hushtaklar eshutilibdi, xuddi minglab bo'ri va kuchuklar bir-birlarini quvlab kelayotganday vahimali tus olibdi.

— Ol uni! Bos uni! — deb olqishlarkan kimdir dahshatli ovozda.

G'azabli akillagan va uvillagan ovozlari tobora yaqinlashib kelaveribdi. Quturgan it va bo'rilar dam sayin bosib kelib, yigitchani parcha-parcha qilib tashlaydiganday tuyulibdi.

U endi burilib qarab, ko'z qirini tashlar-tashlamas folbinning gaplarini eslabdi-yu, olg'a yurib ketibdi. Shu zahoti hurishlar va ulishlar taqqa to'xtabdi, olam suv quygandek jimjit bo'lib qolibdi. Faqat o'rmon uzra quloqni batangga keltiruvchi qah-qaha yangrab, shamolday shox va barglarni shitirlatib o'tibdi-yu, yana atrofni sukunat qoplabdi.

Yigitcha endi es-hushini yig'ib oldim deganda yana bir musibat yuz beribdi.

Zim-ziyo tun bag'rini yorib, birdan ufq yorishib ketibdi, xuddi bemahalda quyosh charaqlab chiqqanday bo'libdi. Bola tepaga qarasa osmonning teng yarmi lovullab yonayotganmish. Aslida yona-yotgan o'rmon ekan, alanga dov-daraxtlarni yamlab yutayotgan ekan. Olov to'g'ri yigitcha tomonga yaqinlashib, bo'ynini cho'zib, jaz-jaz kuydira boshlabdi. Butun-butun bahaybat daraxtlar o'choqdagi laxchaday vish-vish yonar, chars-churs qilib atrofga uchqunlar sachratar, qarsillab bir-birining ustiga yiqilar, bolaning yo'lini to'sar emish.

Qo'rqqanidan beva xotinning o'g'li jasadga aylanibdi. Oyoqlari yerga mixlanib, joyidan qimir etmay qolibdi. Ana-mana olovda jizg'anagi chiqib, bir hovuch kulga aylanishi aniq ekan. Biroq marhuma onaizorining siymosi ko'z oldiga kelibdi-yu, qo'rquvdan asar ham qolmabdi va o'zini to'g'ri alanga ichiga uribdi.

Lahcha cho'g'lar tizzasigacha chiqibdi, jahannamiy issiqdan nafasi qaytibdi, qop-qora dud ko'zini achishtiribdi, lekin u parvo qilmay, olg'a yurib ketaveribdi. Olov do'zaxidan u bazo'r jon saqlab qolibdi.

Bir amallab alanga ichidan chiqib olibdi-da, yigitcha tepaga qarabdi, cho‘qqi shundoq ko‘rinib turganmish, qo‘l uzatsa yetguday emish! Shodlikdan yuragi qinidan chiqayozibdi. Yana bir ko‘zini yumib ochgan ekan, sevinchidan asar ham qolmabdi, vujudini dahshat egallabdi. Ro‘parasida osmon barobar tik qoya to‘sib turganmish!

U uchinchi marta qaragan ekan, qoya etagida bir qora kavakka ko‘zi tushibdi. Kavak og‘zida yetti boshli ilon uxlab yotganmish, xurragidan quloq bitarmish.

Beva xotinning o‘g‘li ilonni uxlab yotgan joyida tinchitib qo‘ya qolay deb o‘ylabdi. Biroq niyatiga yetolmabdi. Ajdaho odamning qadam tovushini eshitib qolibdi-yu, sergaklanib, ko‘zini ochibdi va sapchib tikka bo‘libdi. Yettalov og‘zidan baravariga parr-parr olov otib, kuydira boshlabdi. Ajdaho bir qah-qah solgan ekan, tog‘lar qasirlabdi. Tishlarini g‘ichirlatgan ekan, o‘rmon oh tortib yuboribdi.

Yigitcha qilichini qiyalatib yetti karra sermab, yettala boshini ham cho‘rt uzib tashlabdi. Mudhish maxluqning joni shuvillab chiqibdi, boshlari esa tubsiz jarga dumalab ketibdi.

Mana, nihoyat, beva ayolning kenjatoyi ajdarhoning oshyoniga kirib kelibdi. Ichkari esa dud, is, qurum bosganidan nafas olib bo‘lmasmish. Yigit bazo‘r o‘rnidan turibdi-da, asta-asta yura boshlabdi. Chanqoqdan lablari qaqrab, tomoqlari taqirlabdi, oyoqlarini yerdan illa-illa uzarmish, g‘or bo‘lsa hali-veri tugaydigan ko‘rinmasmish.

Bir mahal yon tomondagi bir tirqishdan nur tushib, g‘alati hid dimoqqa uribdi. Yo alhazar, yerning tubiga quyosh nuri qanday tushayapti?! Yaqinroq borib qarabdi, qarasa, ko‘z oldida ulkan ibodatxonaga o‘xshash g‘or namoyon bo‘libdi, g‘or ichida esa go‘zallikda tengi yo‘q bog‘ gurkirab turganmish. Yerlarda ko‘klam maysalari yashnab, muattar hidli atirgul va nargislar qiyg‘os ochilib yotganmish. Belga urgan o‘tloqzorda turli-tuman mevali daraxtlar saf tortgan, mevalarini ko‘tarolmay shoxlari jilg‘a uzra egilib ketgan emish. Bolakayning qorni juda ochiqqan, tashnalik azobidan qiynalib turgan ekan-u, nachora, yo‘lini burmasdan to‘g‘ri o‘tib ketaveribdi.

Yo‘l yuribdi, mo‘l yuribdi, bir mahal bir tirqishdan yana yog‘du ko‘rinibdi. U tirqishga yaqinroq kelibdi, qarasa — shifti qubbador, osmonday keng bir qasrli g‘or emish. Gunbaz shiftining o‘rtasida oltin zanjirga osig‘liq chiroq porillab turganmish. Devor bo‘ylab ichi oltin, kumush, javohirotda to‘la sandiqlar, qutilar, bochkalar terib qo‘yilganmish.

Marhuma onaizorining suyuqli farzandi boyliklarga nazar-ko‘zini solmay, to‘g‘riga o‘tib ketaveribdi.

Shundoq ketaversa, birdan mingta bulbuligo‘yo jo‘rlikda kuylayotganday bir ajoyib musiqa va qo‘shiq ovozi eshutilibdi. Yo‘lini to‘sib turgan qoya qoq ikkiga ajralib, ikki tabaqali eshik lang ochilibdi-yu, ro‘parada charaqlab oltin saroy namoyon bo‘libdi.

Saroyning o‘rtasida yumshoq guldor gilam uzra o‘n nafar sohibjamol qiz kuyga monand raqs tushmoqda va mayin ovozda qo‘shiq aytmqda ekan. Ularning egnilaridagi harir liboslari shunchalik shaffof, tiniq ekanki, ko‘rib odamning aqli lol qolar ekan. Qizlar yigitga ko‘zlari tushishi hamon raqsdan to‘xtashibdi, ichlaridagi eng chiroylisi eshik tomon yugurib kelibdi va shirin jilmayib, yoqimli ovozda gapirgancha oppoq qo‘lchalarini silkib chaqira boshlabdi.

Boshqa har qanday kishi bo‘lganda ham o‘zini tutib turolmas ekan-u, lekin yigitcha qishloqda qolgan ma‘shuqasini eslabdi. Gulday sevgilisiga xiyonat qilishni istamabdi, qo‘li bilan ko‘zlarini bekitib olibdi va paypaslanib olg‘a yurib ketibdi. Ketaveribdi, ketaveribdi, bir vaqt bir temir darvozaga borib urilibdi. U qo‘li bilan itargan ekan, eshik g‘ichirlab ochilibdi. Quyosh nuri yuziga urib, yigit yorug‘ olamga chiqibdi. Qarasa, sehrli tog‘ning qoq cho‘qqisida turganmish.

Cho‘qqida turib u nafasini rostlabdi, atrofga ko‘z yugurtiribdi. Hamma narsa xuddi jodugar kampir aytganday ekan: ship-shiydon yaydoq cho‘qqida yolg‘iz bir tup daraxt o‘sib turganmish, barglari kumushday bo‘lib, xuddi sozga o‘xshab yoqimli sado taratarmish.

Uning ildizlari ostidan zilolday chashma qaynab, eng tepadagi shoxda o'tirgan oltin lochin bir maromda chayqalarmish.

Yigitchani ko'rib, lochin qanotlarini qoqqan ekan, oltin patlar jaranglab sado beribdi, lochin yuksakka ko'tarilibdi-yu, bulutlar orasiga kirib, ko'zdan g'oyib bo'libdi.

Beva xotinning o'g'li sillasi quriganidan gapiruvchi daraxt tomon emaklay ketibdi. Emaklab-emaklab yaydoq cho'qqiga yotib olibdi va chashma suviga talpinibdi. Chashma suvidan ichgan sayin tetiklashib bir kuchiga o'n kuch qo'shib, yaralari bita boshlabdi. Ko'z ochib-yumguncha badanidagi yaralardan asar ham qolmabdi.

Chashma suvidan miriqib ichib olganidan keyin u dast o'rnidan turibdi-yu, huv pastda yoyilib yotgan olam uzra shodon ko'z yugurtira boshlabdi. Ertalabki quyosh borliqni zarrin nurlarga ko'mib yuborgan ekan. Eh-he, yer yuzida tog'lar, dalalar, o'rmonlar, daryolar, qishloqlar shunchalik ko'p ekanki, sanab adog'iga yetib bo'lasmish. Xuddi suvratdagiday hammasi yorqin, rango-rang emish. Ming tomosha qilgan bilan sira ko'z to'ymas emish.

Bir vaqt yigitcha tepasidan qanot tovushlari kelayotganini payqabdi. Qarasa, oltin lochin uchib kelayotganmish, tumshug'ida oltin ko'za bor emish. Uchib kelib to'g'ri yigitning yelkasiga qo'nibdi. Shunda daraxtdagi oltin yaproqlar yoqimli shiqirlab, yigitchaning qulog'iga shunday so'zlar chalinibdi:

Olgil, ko'zani,
Oltin ko'za ol.
Obi hayotni
Tez to'ldira qol.
Ayama, sindir.
Nozik niholim.
So'ng uyga tomon
Yo'l olgin, jonim.
Niholni suvga
Chayqab-chayqab ol.
Qadam-baqadam
Sepib bor alhol.

Daraxt nimani amr etsa, yigit uni bekam-u ko'st ado etibdi. Oltin ko'zani to'ldirib, chashma suvidan olibdi, bir shoxni ham sindirib olibdi-da, tog'dan pastga tusha boshlabdi. Bir oz yurar ekan-da, to'xtab nafasini roslarkan, shoxchani suvga botirib, atrofga sachratarkan.

Shunda g'aroyb bir mo'jiza ro'y beribdi-ku! Sachragan suv tomchilari tekkan har bir toshdan odam o'sib chiqib, jilmaygancha uning ortidan ergashib kelaveribdi. Yigitcha pastga tushgan sayin odamlar ko'payib, olomonga aylanibdi. Tog' etagiga tushganidan keyin yigit orqasiga qarasa, xuddi yurishga chiqqan qo'shinga o'xshab minglab xaloyiq ergashib kelayotganmish.

Xaloyiq ichida ming toifa odam bor emish, asilzodalarning olifta farzandlaridan tortib jasur jangchilargacha, gadoydan tortib shahzodalargacha, ayollar, chollar, bolalar... Ular orasida beva xotinning o'g'li ikkala akasini ko'ribdi: biri shamshir tutgan askar va biri qo'lida cholg'u ushlagan mashshoq qiyofasida emish.

Xaloyiq ozod qilgani uchun dehqon yigitga minnatdorchilik bildirar, o'la-o'lguncha halol xizmatini qilamiz deb ont ichar emish.

Xaloyiqning oldiga tushgancha yigit olg'a qarab yurishda davom etibdi. Bir kun yuribdi, ikki kun yuribdi, uchinchi kun deganda tug'ilgan qishlog'iga kirib kelibdi.

Yigit kulbasi sari yuguribdi, eshikni ochib ichkariga qarabdi, uch haftadan beri jonsiz yotgan onasini ko'ribdi. U tezda gapiruvchi daraxt shoxchasini obihayotga botiribdi-da, silkib-silkib onasiga sachratibdi. Onaizor ko'zini ochibdi. Xuddi hech narsa bo'lmagandek,

to‘rt muchasi sog‘ odamday asta o‘rnidan turibdi. Vafodor o‘g‘il esa onasini mahkam bag‘riga bosib, sevinchdan yig‘lab yuboribdi, xaloyiq ham uning quvonchiga sherik bo‘lib, chapak chalib, qiyqirib olqishlabdi.

Faqat ikkita odamgina bu quvonchlarga qo‘shilmabdi. Bu ham bo‘lsa yigitning ikkala dono akasi ekan. Quvonishmaganining sababi: shundoq dono, olim bo‘la turib, obihayotni ular emas, avom bir ukalari topib kelgani ekan. Ular dehqon ukalarining baxtini ko‘rishga toqatlari chidamabdi. Hech kimga bildirmay, imi-jimida boshqa mamlakatga juftakni rostlab qolishibdi. Boshqa mamlakatda esa ularni bir paqirga olishmabdi, chunki o‘zlarida aqlli, dono odamlar juda yetarli ekan, katta aka o‘lganining kunidan aravada go‘ng tashib tirikchilik qila boshlabdi.

O‘rtanchasining taqdiri bundan ham ayanchli bo‘libdi: hech qayerga sig‘may, boshi oqqan tomonga darbadar sanqib ketibdi.

Oradan zamonlar o‘tib haligi mo‘jazgina qishloq o‘rnida bashang va keng bir shahar bunyodga kelibdi. Shahar o‘rtasida bir qasr savlat to‘kib turarkan.

Beva xotinning kenjasi o‘z suyganiga — oqbilak oyimqizga uylanib, shu qasrda davr-u davron suribdi.

“Oltin shahzoda” kitobidan